

**BANK RESURSLARINI SHAKLLANTIRISH VA FOYDALANISH**

*Ganiyeva Umida Abdugaffarovna*

*Toshkent moliya instituti, katta o'qituvchi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bank resurslarini shakllantirish va foydalanish, banklarning iqtisodiy faoliyati, bank resurslarining depozit va nodepozit manbaalari, bank resurslarini shakllantirish jarayoni, bank resurslarini barqarorligini ta'minlash haqida batafsil bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** bank faoliyati, bank resurslari, iqtisodiy faoliyat, passiv operatsiyalar.

**Kirish:**


Banklarning iqtisodiy faoliyatidan kelib chiqadigan bo'lsak, bank faoliyatida ham o'ziga yarasha ehtiyojlar va talablar mavjud. Maqolada bank faoliyati yuritish uchun kerak bo'lgan "resurslar" tushunchasi va ularning tarkibi hamda mazmuni bilan tanishamiz. Banklar faoliyati ham boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar singari o'z faoliyatini olib borishi uchun yetarli miqdorda pul va moliyaviy resurslari bilan ta'minlangan bo'lishi darkor, chunki ularning muhim taklif qiladigan va ko'rsatadigan xizmatlari ham pul mablag'lari yoki moliyaviy resurslarda tashkil topadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya:**

Tijorat banklari resurslari makroiqtisodiy ko'rsatkichlar orasiga kiradi va bankning likvidligiga va daromadlilikiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qiladi. Tijorat bankning faoliyati ko'rsatish qamrovini oladigan bo'lsak, ular oladigan foydalar bank resurslarini qanday rivojlantirilganligi va qanday shartlar va turlari bo'yicha jalb etilganligiga juda ham bog'liqligini juda yaxshi bilamiz. Shuning uchun banklar orasida ham mablag'larni jalb etishda ham yuqori raqobat sharoiti paydo bo'lganligini ham guvohi bo'lishimiz mumkin.

Bank resurslarini takomillashtirish jarayoni bu faqatgina yangi mijozlarni bankka jalb qilishning o'zi emas balki bank mablag'lari tuzilishining doimiy ravishda o'zgarib turishi va tarkibidagi passivlarning holatiga qarab o'z aktivlarini boshqarishi ham tushuniladi. Buning uchun esa samarali passivlarni boshqarish tizimi yoki samarali depozit siyosatini yuritilishini talab etiladi. Mijozlar oldidagi talabni doimiy qondirish hamda barqaror holatni saqlab qolish uchun banklar kerakli darajada likvidlik talablarni bajarishi kerak.

**Tahlil qilinayotgan davrga ko‘ra bank faoliyati tahlili quyidagicha tasniflanadi.**



Banklarning rivojlanish taraqqiyotida shuning bilan birgalikda an’anaviy va xorijiy tajribalardan kelib chiqqan tarzda jalb etilgan mablag‘larning tarkibida uni tashkil qiluvchi manbalarda bir qator o‘zgarishlar paydo bo‘lgan, ya’ni hozirgi vaqtda jalb etilgan mablag‘lar depozit va nodepozit manbalar hisobiga rivojlanayotganligini ko‘ramiz. Bank resurslarining depozit va nodepozit manbalar ham o‘z o‘rnida bozor tizimidagi bank faoliyatining bir necha iqtisodiy unsurlardan tashkil etilganligini ko‘rishimiz mumkin.

**Natijalar:**

Likvidlik normasini ko‘rsak, hozirgi vaqtda u hamma talab qilib olguncha depozitlarga qaraganda 30% kam bo‘lmagan miqdorida mablag‘larni likvid holda ushlab turishi darkor. Resurslarning chegaralanganligi bu banklarning shakllanayotganligini va bankning mijozlarga bog‘lanib qolishini, shuningdek banklar orasida mijozlar uchun kuchli raqobat muhiti paydo bo‘layotganligini ko‘rmoqdamiz. Shuning uchun bank resurslarini doimiyligini ta’minlash uchun aniq strategik rejalar bilan asoslangan depozit siyosati yuritishi yordamida depozit portfelining diversifikatsiyalanganligi, shuningdek yuritilayotgan depozit siyosatining samaraliligiga erishish kerak.

**Muhokama:**

Hozirgi sharoitda resurslar jalb etilish bilan birgalikda ularni optimal shaklda taqsimlash va kerakli bo‘lgan maqsadlarga erishish, ya’ni davlat ahamiyatidan ham bank hamda mijoz manfaatini ham ko‘zlashi joiz. Sababi banklar o‘z to‘lov qobiliyatini saqlashi yoki likvidligini saqlab turishi bank uchun ham mijoz uchun ham eng asosiy bo‘lib, uchinchi tarafdan nazorat qiluvchi muassasalarning ham qarashlarini qondiradi.

Ikkinchi tarafdan likvidlik, shuningdek daromadlilik bir biriga nisbatan teskari proporsional. Shularni nazarda tutgan holda bank jalb etilayotgan manbalarning

sifatiga shu bilan birgalikda yo‘naltirilayotgan sohalar ishonchliligiga kuchli e‘tiborni qaratishlari darkor. Bankning depozit siyosati o‘z ichiga barcha ijtimoiy darajadagi shaxslar - nafaqaxo‘rlar, yoshlar va yoshi kattalar hamda kam ta‘minlanganlar va kam daromadlilarning ham hisobini olishlari zarur.

**Xulosa:**

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, har bir mijoz bilan iloji boricha uzoq muddatli aloqalarni yo‘lga qo‘yishi lozim va buning uchun mijozlarning talablarini oldindan bilishlari, shuningdek ular uchun kerakli xizmat turlarini o‘z vaqtida berishlari darkor. Bank resurslari bizga ayonki, passiv operatsiyalarni natijasida shakllanadi. Bankning passiv operatsiyalari - bankning o‘z va jalb etilgan mablag‘larini ustida amalga oshirilgan amaliyotlarda paydo bo‘ladi.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Abdullayev Y., Abdullayeva Sh. Bank ishi. -T.: 2021.
2. Tojiyev R., Jumayeva S. Xalqaro moliya. O‘quv qo‘llanmasi. TDIU. 2019.
3. Mullajonov F.M. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi. -T.: O‘zbekistan. 2021.
4. Abduganiyev B.A. Moliyaviy manbalar va bank kreditlarining samaradorligi muammolari. Nomzodlik dissertatsiyasi, -T.: 2020.